O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

O'QUV ISHLARI DEKANATI TOMONIDAN RO'YXATGA OLINDI
T/R: 220/b
"31" 05 2024 y.

"TASDIQLAYMAN"
B.A.Tulaganov
(OTM rektori)
2024-yil «31» 05

Ro‘yxatga olindi: ______________

2024-yil «_____» ____________

# IQTISODIY O‘SISh

## O‘QUV DASTURI

| | | |
|---|---|---|
| **Bilim sohasi:** | **300000** | – Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot |
| **Ta’lim sohasi:** | **310000** | – Ijtimoiy va hulq atvorga mansub fanlar |
| **Ta’lim yo‘nalishlari:** | **60310100** | – Iqtisodiyot (qurilish) |

**Toshkent – 2024**

| Fan/modul kodi | O‘quv yili | Semestr | ECTS - Kreditlar | |
|---|---|---|---|---|
| IO’2504 | 2024-2025 | 5 | 4 | |
| **Fan/modul turi** | **Ta’lim tili** | | **Haftadagi dars soatlari** | |
| Tanlov | O‘zbek/rus | | 4 | |

| | Fanning nomi | Auditoriya mashg‘ulotlari (soat) | Mustaqil ta’lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
|---|---|---|---|---|
| 1. | **Iqtisodiy o‘sish** | 60 | 60 | 120 |

2. **I. Fanning mazmuni**

Ushbu fan iqtisodiy o‘sish, uning tarkibi, xususiyatlari, turlari, omillari, modellari, mexanizmlari va ularning amal qilish qonuniyatlari, davlatning iqtisodiy o‘sish va rivojlanish siyosati hamda uning asosiy yo‘nalishlari, iqtisodiy o‘sish to‘g‘risidagi turli hil qarashlar, ularning asoslari va manbalarini, iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda davlat hamda nodavlat sektorining ahamiyatini o‘rgatadi.

Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarga iqtisodiy o‘sish to‘g‘risidagi bilimlarning nazariy asoslarini, iqtisodiy rivojlanishning asosiy tushunchalarini, iqtisodiy qonunlar va tamoyillarini o‘rgatish, iqtisodiy o‘sish va rivojlanishni solishtirishda chuqur tahlil qilish, iqtisodiy o‘sishga ham nazariy ham empirik yondashuvni tushuntirish, iqtisodiy o‘sish modellarini tushuntirish va ulardan foydalanishni o‘rgatish, iqtisodiy o‘sishni mustaqil baholay olish qobiliyatini shakllantirishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalalar, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga uslubiy yondoshuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Fanning asosiy vazifalari quyidagilarini o‘z ichiga oladi:

- o‘tkazilayotgan tahlillarga asoslanib empirik usullarni baholay olishni o‘rgatish;
- ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotchilarning ishlarini baholay olishni o‘rgatish;
- iqtisodiy o‘sishga ta’luqli bo‘lgan eng samarali adabiyotlarini ajratib ola bilishni o‘rgatish;
- nazariy modellarni tahlil qila olish va asosiy mexanizmlarni tushunishni o‘rgatish;
- iqtisodiy o‘sish mavzusiga tegishli ma’lumotlarni yigishni o‘rgatish;
- o‘tkazilayotgan tahlillarda o‘zlarining empirik bilimlarini qo‘llay olishni o‘rgatish;
- o‘z fikrini bildira olishi va ularni himoyalay olishni o‘rgatish;
- iqtisodiy o‘sish bilan bog‘liq bo‘lgan ma’lumotlarni tahlil qila olishni o‘rgatish.

**II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)**
**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1 – mavzu. Kirish: iqtisodiy o‘sish**

Iqtisodiy o‘sish tushunchasi. Iqtisodiy o‘sish va rivojlanish. Iqtisodiy tushunchalar va ularning mazmuni. Iqtisodiy yondashuvlar. Ikki tarmoqli yondashuv. Iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlari.

**2 – mavzu. Solov modeli.**

Robert Solovning iqtisodiy o‘sish nazariyasi kitobi. Solov modeli yaratilishi va nobel mukofoti taqdimoti. Solov modelining asoslari. Solov modeli formulasi. Kapital va mehnat tushunchalari. Solov modeli qo‘llanilishi. Solov modeli va texnologiyalar o‘rtasidagi bog‘liqlik. Solov modeli va texnologik jarayon diagraamasi

**3 – mavzu. Tutash-avlodlar iqtisodiy o‘sish modeli.**

Firmalar, ishlab chiqarish jarayon, mahsulotlar va kapitalga bo‘lgan talab. Kapital turlari. Uy xo‘jaliklari. Uy xo‘jaligida jamg‘armalar va ularning kapital oqimiga ta’siri. Raqobat munosabatlarining iqtisodiy o‘sishga ta’siri. Rivojlanayotgan iqtisodiyotda raqobatning ahamiyati. Inson omili va inson kapitali. Turli davr ishlab chiqarish jarayonlari va ularning o‘zaro aloqadorligi.

**4 – mavzu. Fiskal siyosat.**

Davlatning iqtisodiy o‘sishga ta’siri va iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchisi sifatida. Davlatning infratuzilmalarni ta’minlashi. Kapital, qonunlar, ta’lim, sog‘liqni saqlash va kommunal xizmatlar. Xususiy kapital samaradorligini oshirish. Rivojlanayotgan davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy rivojlanish farqlari.

**5 – mavzu. G‘oyalar iqtisodiyoti.**

Iqtisodiy o‘sishning kapitalga yo‘naltirilgan nazariyalari. Jismoniy va texnologik kapital. Texnologik rivojlanish bo‘lmagan holatda iqtisodiy o‘sishni ifodalash. Ushbu model orqali ayrim davlatlarning boyligi va ayrim davlatlarning qashshoqligini ifodalash. Turli texnologiyalarning rivojlanishi iqtisodiyotga bevosita va bilvosita ta’siri.

**6 – mavzu. O‘sish dvigateli.**

Iqtisodiy o‘sishning aniq texnologik modeli va g‘oyalari. Nega ilg‘or mamlakatlardagi texnologiyalar boshqa bir davlatlarga nisbatan 2-3 yilga ilgarilab ketgan? Texnologik rivojlanishga nimalar sabab bo‘lgan? Nega o‘sish sur’ati 1% o‘rniga 2%ni yoki 10% tashkil etadi? Iqtisodchilar fikri: Iqtisodiy o‘sishning endogen nazariyasi. Endogen va ekzogen omillar. Texnologik jarayon asosida iqtisodiy kuchlarni hisobga olish.

**7 – mavzu. To‘liq bir tarmoqli neoklassik o‘sish modeli.**

Ushbu mavzuda yuqorida ko‘rib chiqilgan barcha mavzularning umumiy xulosasi bir yerga yig‘ilgan. Yuqoridagi mavzularda chuqur ko‘rib chiqilgan masalalarning o‘xshashligi va ularning farqlari ko‘rib chiqilgan. 20 asr boshlarida boy davlatlarning qashshoq davlatlarga nisbatan rivojlanganligi va boyligi 20-40 baravar yuqori bo‘lgan. 1870-1990 yillardagi davlatlar iqtisodiyoti va ularda neoklassik modellarning rivojlanganlik darajasiga hamda iqtisodiy o‘sishga ta’siri.

**8 – mavzu. O‘sish va rivojlanishning sodda modeli.**

Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy o‘sish. Romer va Shempeter modellari. Mikroiqtisodiy asosga ko‘ra davlatlarda texnologik rivojlanishning sabablari. O‘sish dvigateli. Bir yo‘nalishdagi texnologiyalarning turli davlatlarda turli samaradorlikga egaligi.

**9 – mavzu. Tugallangan ikki turdagi iqtisodiyot.**

Jismoniy va inson kapitalini o‘z ichiga olgan ikki model. Modellarning iqtisodiy o‘sishga ta’sir etuvchi asosiy xususiyatlari. Ikki modeldagi barcha ko‘rsatkichlarni 1 modelda umumlashtirish. Modellarga misol kelitirshda asosan o‘y-xo‘jaligi va ishlab chiqarish tarmoqlari misol tariqasida olingan. Ushbu tarmoqlar iqtisodiyot rivojlanishida muhim ahamiyatga ega ekanligi va bunga bir qator sabablar keltiriladi.

**10 – mavzu. Ijtimoiy infratuzilma va uzoq muddatli iqtisodiy ko‘rsatkichlar.**

Davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy o‘sishlarning turlichaligiga sabab ayrim davlatlar investitsiyaga va yangi texnologiyalarni o‘rganishga ko‘proq mablag‘ va inson kapitalini sarflashlari. Bunga yana bir sabab ularning geografik jihatdan joylashgan xududi sanaladi. Ya’ni tabiiy boyliklarning mavjudligi va iqlimi. Bundan tashqari ma’daniyati va dini ham bunga ta’sir etuvchi omil bo‘lib hisoblanadi. Maks Veber g‘oyalari.

**11 – mavzu. Aholi va mustahkam iqtisodiy o‘sishning manbalari.**

Texnologiyalarning rivojlanish tezligi va aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi daromad. Iqtisodiyotda tadbiq etilishi mumkin bo‘lgan iqtisodiy g‘oyalar soni. Aholi o‘sishi hisobiga ularning hayot sifati oshishi. Tomas Maltus fikri. Genri Djorj g‘oyalari.

**12 – mavzu. Urbanizatsiya.**

Ushbu mavzuda migratsiya va uning urbanizatsiyaga ta’siri ko‘rib chiqiladi. Avvalgi mavzularda tuzilmaviy o‘zgarishlarning iqtisodiy o‘sishga ta’siri ko‘rib chiqiladi. Migratsiya ham o‘z navbatida tarmoqlpr rivojlanishiga o‘z tasirini ko‘rsatadi. Ushbu mavzuda asosiy e’tibor shahar va kishloqlarda ko‘rsatilayotgan xizmatlar va bularning iqtisodiyotga ta’sirini ko‘rib chiqamiz.

**13 – mavzu. Tabiiy resurslar va iqtisodiy o‘sish.**

Tabiiy resurslar cheklangan sharoitda faqatgina qishloq xo‘jaligiga suyanish aholi turmush sharoitini pasayishiga olib keladi. Tarixdan ma’lumki aholi turmush sharoiti ham, aholi soni ham ishlab chiqarishdagi revolyusiyalar hisobiga o‘sib kelmoqda. Maltusning qarashlari, Tomas Karlaylning iqtisodiyotni “zerikarli fan” deb ta’riflashi notug‘ri ekanligini ko‘rsatib berdi. Stenford universiteti biologi Pol Erlix va Donelli Midous g‘oyalari va qarashlari.

**14 – mavzu. Iqtisodiy o‘sishning tushunish.**

Iqtisodiyotning murakkab sirlarini tushunish, butun dunyo davlatlaridagi iqtisodiy o‘sish va rivojlanishning turlichaligi, Efiopiyada ishlayotgan ishchining 1 oy ishlab olayotgan daromadi Amerikada yoki Yevropada ishlayotgan ishchining 1 kunlik daromadiga tengligi yoki bo‘lmasa hozirda Yaponiyada ishlayotgan ishchining daromadi uning bobosi yoki buvisi topgan daromaddan 10 baravar ko‘pligi masalalari. Iqtisodiy o‘sishning asosiy omillari. Ayrim davlatlar iqtisodiyotining tezkor rivojlanishi sabablari.

## III. Amaliy mashg‘ulotlari bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Kirish: iqtisodiy o‘sish.
2. Solov modeli.
3. Tutash-avlodlar iqtisodiy o‘sish modeli.
4. O‘sishning neoklassik modellarini empirik ko‘llanishi.
5. Fiksal siyosat.

| | |
|---|---|
| | 6. G‘oyalar iqtisodiyoti.<br>7. O‘sish dvigateli.<br>8. To‘liq bir tarmoqli neoklassik o‘sish modeli.<br>9. O‘sish va rivojlanishning sodda modeli.<br>10. Ikki tarmoqli va ikki turdagi iqtisodiyot:<br>11. Tugallangan ikki turdagi iqtisodiyot.<br>12. Ijtimoiy infratuzilma va uzoq muddatli iqtisodiy ko‘rsatkichlar.<br>13. Aholi va mustahkam iqtisodiy o‘sishning manbalari.<br>14. Endogen o‘sishning alternativ nazariyasi.<br>15. Urbanizatsiya.<br>16. Tabiiy resurslar va iqtisodiy o‘sish.<br>17. Iqtisodiy o‘sishni tushunish.<br><br>Amaliy mashg‘ulotlar multimedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o‘qituvchi tomonidan o‘tkazilishi zarur. Mashg‘ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o‘tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.<br><br>**IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar**<br>Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:<br>1. Kirish: iqtisodiy o‘sish.<br>2. Solov modeli.<br>3. Tutash-avlodlar iqtisodiy o‘sish modeli.<br>4. O‘sishning neoklassik modellarini empirik ko‘llanishi.<br>5. Fiksal siyosat.<br>6. G‘oyalar iqtisodiyoti.<br>7. O‘sish dvigateli.<br>8. To‘liq bir tarmoqli neoklassik o‘sish modeli.<br>9. O‘sish va rivojlanishning sodda modeli.<br>10. Ikki tarmoqli va ikki turdagi iqtisodiyot.<br>11. Tugallangan ikki turdagi iqtisodiyot.<br>12. Ijtimoiy infratuzilma va uzoq muddatli iqtisodiy ko‘rsatkichlar.<br>13. Aholi va mustahkam iqtisodiy o‘sishning manbalari.<br>14. Endogen o‘sishning alternativ nazariyasi.<br>15. Urbanizatsiya.<br>16. Tabiiy resurslar va iqtisodiy o‘sish.<br>17. Iqtisodiy o‘sishni tushunish. |
| | Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan loyiha ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi. |
| 3. | **V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:<br>• iqtisodiy rivojlanishning umumiy asoslari, bosqichlari, o‘zgarish sabablari va oqibatlari; hozirgi zamon iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlari; iqtisodiy qonunlar, kategoriyalar va modellar to‘g‘risi ***tasavvur va bilimga ega bo‘lishi:***<br>• iqtisodiyot asoslarini; milliy iqtisodiyotning amal qilishi va rivojlanishi qonuniyatlarini; makroiqtisodiy darajadagi vaziyatlarni; iqtisodiy jarayonlarning amal qilish ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi:***<br>• iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tahlil qilish usullarini bilgan holda samalari qo‘llash; iqtisodiy qonunlarni, ilmiy tushunchalarning (kategoriyalarning) amal qilish xususiyatlarini, mexanizmlarini bilgan holda iqtisodiy muammolar bo‘yicha yechimlar qabul qilishmalakasiga ***ega bo‘lishi kerak.*** |
| 4. | **VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma’ruzalar;<br>• real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish;<br>• esse, tezis va maqolalar yozish;<br>• vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) yechish;<br>• jarayonli-yo‘naltirilgan ta’lim;<br>• muhokamalarda ishtirok etish;<br>• kichik guruhlarda ishlash;<br>• loyiha ishi bajarish;<br>• mustaqil ishlarni bajarish;<br>• taqdimot tayyorlash;<br>• turli darajadagi testlarni yechish;<br>• so‘rov o‘tkazish. |
| 5. | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha test yoki yozma ishni topshirish. |

| | |
|---|---|
| **6.** | **Asosiy adabiyotlar**<br>1. Charles I. Jones and Dietrich Vollar https://www.amazon.com/s/ref=dp_byline_sr_book_1?ie=UTF8&field-author=N.+Gregory+Mankiw&text=N.+Gregory+Manki&sort=relevancerank&search-alias=books. Introduction to economic growth. 3rd Edition. 2013y.<br>2. Sibabrata Das, Alex Mourmouras, Peter Rangazas. Economic growth and development. A dynamic dual economy approach. 2nd Edition. 2018 y. ISNN 2192-4333. Electronic ISNN 2192-4341<br>3. Xajiev B.D., Axmedov D.Q., Zaxidov G.E., Mambetjanov Q.Q. Iqtisodiy rivojlanish nazariyalari. Darslik. – T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2018. – 428 bet.<br>4. Xajiev B.D., Abdullaev S.O., Mambetjanov Q.Q. O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi. Darslik. – T.: “Zebo yulduzlari MChJ”, 2018. – 417.<br><br>**Qo‘shimcha adabiyotlar**<br>1. Barbara M. Fraumeni. Measuring economic growth and productivity. Beijing, China. 2020.<br>2. Istvan Konya. Economic growth in small open economies. Budapest, Hungary. 2018.<br>3. Jérémie Cohen-Settonthomas Helblingadam S.Posen Changyong Rheeeditor Speterson. Sustaining economic growth in Asia. Fund Washington, 2018.<br>**Axborot manbaalari**<br>1. www.gov.uz - O‘zbekiston Respublikasi xukumat portali.<br>2. www.lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.<br>3. www.tradingeconomics.uz - ekonomicheskie pozateli. |
| **7.** | Fan dasturi Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha O‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2024 yil “31” 05 dagi 9 -sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan. |
| **8.** | **Fan/modul uchun ma’sular:**<br>K.S.Tashmuxamedova– TAQU “Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti, i.f.f.d. (PhD) |
| **9.** | **Taqrizchilar:**<br>I.X.Davletov – TAQU “Menejment” kafedrasi professori, i.f.d. (DSc)<br>A.J. Abdullayev – TDTU “Transport iqtisodiyoti” kafedrasi dotsenti, i.f.f.d. (PhD) |